

TA'LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KOMPYUTERLASHTIRILGAN TA'LIMNING SAMARADORLIGI

O`rishov Alisher Nomozovich

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
Informatika o`qitish metodikasi kafedrası o`qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizning deyarli barcha jihatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim sohasida asosiy vositalardan biri bu didaktik ta'minotlardir. Didaktik ta'minotga o'quv materialining o'zgargan shakllari taqdimotlar, diagramma, jadval, test, virtual laboratoriya va boshqalar kiradi. Bunday ta'minotlarni yaratishda kompyuterdan foydalanishning imkoniyati keng va kelgusida bu ta'minotni o'zgartirib, takomillashtirib borish ham mumkin. Bundan tashqari darslarni multimediali tashkil etish, masofadan ta'lim olish, mustaqil o'rganish kabi imkoniyatlarni ham yaratib beradi.

Kalit so'zlar: Kompyuterlashtirilgan ta'lim, o'quvchilarning diqqati, o'rganish ob'ekti, ta'limni boshqarish, sun'iy intellekt, hissiy moslashuvchanlik.

Аннотация. Сегодня информационные и коммуникационные технологии оказывают существенное влияние практически на все аспекты нашей жизни. Одним из основных инструментов в сфере образования является дидактическая поддержка. Дидактическое обеспечение включает модифицированные формы учебного материала, презентации, схемы, таблицы, тесты, виртуальные лаборатории и т. д. Для создания такого программного обеспечения можно использовать компьютер, а в дальнейшем возможно изменять и улучшать это программное обеспечение. Кроме того, он предоставляет возможности для мультимедийных уроков, дистанционного обучения, самостоятельной работы.

Ключевые слова: компьютеризированное обучение, внимание студентов, учебный объект, управление обучением, искусственный интеллект, эмоциональная гибкость.

Annotation. Today, information and communication technologies have a significant impact on almost all aspects of our lives. One of the main tools in the field of education is didactic support. Didactic support includes modified forms of educational material, presentations, diagrams, tables, tests, virtual laboratories, etc. It is possible to use a computer to create such software, and in the future it is possible to change and improve this software. In addition, it provides opportunities for multimedia lessons, distance learning, independent study.

Keywords: computerized education, students attention, object of study, education management, artificial intelligence, emotional adaptability.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizning deyarli barcha jihatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim sohasida asosiy vositalardan biri bu didaktik ta'minotlardir. Didaktik ta'minotga o'quv materialining o'zgargan shakllari taqdimotlar, diagramma, jadval, test, virtual laboratoriya va boshqalar kiradi. Bunday ta'minotlarni yaratishda kompyuterdan foydalanishning imkoniyati keng va kelgusida bu ta'minotni o'zgartirib, takomillashtirib borish ham mumkin. Bundan tashqari darslarni

multimediali tashkil etish, masofadan ta'lim olish, mustaqil o'rganish kabi imkoniyatlarni ham yaratib beradi.

Ta'lim jarayoni avvalo o'quvchilar diqqatini rivojlantirishni talab etadi, Darslarda ko'rgazmali qurollardan, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchining diqqatini rivojlantiradigan omillardan hisoblanadi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda o'quvchilarning faolligini yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materialni idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqati o'zgarib turadi. O'qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish, o'quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga hamda o'zlashtirilgan materialni takrorlashga jalb etish kerak.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarda tegishli jihatlarini hosil qilishi kerakligini, o'tilgan mavzu yuzasidan barcha savollarga javob bergan holda mavzu doirasidagi umumiy ma'lumotlarni tushuntirib o'tishi lozim. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi tomonidan bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha bilish va o'rganishga nisbatan noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi.

Hozirgi kunda kompyuterlar ta'lim tizimida asosan to'rt yo'nalishda foydalanilmoqda:

o'rganish ob'ekti sifatida;

o'qitishning texnik vositalari sifatida;

ta'limni boshqarishda;

ilmiy pedagogik izlanishlarda.

Kompyuterli o'qitishning ta'lim sifatini oshirishdagi afzalliklari:

o'quvchilarda ma'lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaradi;

mashq qilinadigan topshiriqlar soni oshadi;

o'quvchilarning ishlash sur'ati jadallashadi;

kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o'quvchi ta'lim subyektiga aylanadi;

o'quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo'ladi;

kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda darsni uzoqdagi manbalar bilan ta'minlash imkoniyati hosil bo'ladi.

Kompyuterli ta'limni tashkil etish – o'quvchi bilan o'quv materiali o'rtasidagi bog'lanishni kompyuter vositasida yo'lga qo'yish orqali amalga oshiriladi. O'quvchi bilan o'quv materiali o'rtasidagi bog'lanishni tashkil etish uchun ta'lim loyihalanadi. O'quvchilarning o'quv ishlarini tashkil etish, ular faoliyatini rag'batlantirish tegishli vositalar asosida modellashtiriladi.

Ta'lim jarayonida foydalanishga mo'ljallangan ko'plab elektron o'quv materiallari yaratilganki, unga elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, o'rgatuvchi dasturiy vositalari kabi omillarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Ular o'zida boshqarilish imkoniyati, interfaol uslublar, sun'iy intellekt elementlari, hissiy moslashuvchanlik kabi xususiyatlar muvjudligiga ko'ra ta'limda ma'lum samaradorlikni ta'minlaydi.

Kompyuterlarni o'quv jarayonida qo'llash quyidagilarga imkon beradi:

o'quvchilarda bilish ehtiyojini shakllantiradi;

o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi;

o'quvchilarda fanni o'rganishga qiziqishni oshiradi;

kompyuter bilan ishlashni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi;

kompyuterlardan foydalanish bilan bog'liq dunyoni ilmiy bilishning hozirgi zamon metodlari bilan tanishtiradi;

ta'limda o'quvchining individuallik darajasini oshiradi;

o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi;
materiallar mazmunining xilmaxilligini ta'minlaydi;
ta'limda foydalaniladigan o'quv materiallari doirasini kengaytiradi;
ta'limda ko'rgazmalilikni kuchaytiradi;
o'quvchilarning o'zo'zini nazorat qilishi, ya'ni baholash jarayonining omillarini kengaytiradi va h.k.

Компьютерли та'лим tamoyillari:

ilmiylik;

tizimlilik va ketmaketlik;

ko'rgazmalilik;

o'quvchilar faoliyatini individuallashtirish;

nazariyaning amaliyot bilan aloqadorligi;

tushunarlilik;

fanlararo, ham fan ichidagi bog'liqlikni ta'minlash;

fanning turmush bilan bog'liq bo'lishi;

bilish faoliyatini faollashtirish;

izlanishga o'rgatish.

Pedagogik, kompyuter va axborot texnologiyalar ta'lim jarayonini tashkil etish, tayyorlash, ilmiy-metodik materiallar bilan ta'minlash, ta'lim jarayonini amalga oshirish, ta'lim natijalarining sifatini baholashdan iborat bo'lgan yaxlit tizimda o'z ifodasini topadi.

ADABIYOTLAR

1. Urishev, A. N. (2021). Gpon systems in the modern world. Scientific progress, 2(1), 78-85.
2. Urishov, A. N. (2021). Analysis and practical application of electronic authorized catalogs. Academic Research in Educational Sciences, 2 (11).
3. Normurodov, A., O'rishov, A. (2021). Comparative analysis of technologies for the development of optical networks. InterConf, 685-688.
4. Боймуродов, А. Х., & Азимкулов, С. Н. (2021). ТАЪЛИМ САМАРАДАОРЛИГИГА ЭРИШИШДА ТИЗИМДА ИННОВАЦИОН УЛУЛЛАР. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(4), 839-843.
5. АЗИМҚУЛОВ, С. (2021). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ АСОСИДА ТАШКИЛ КИЛИШДА ҚУЛЛАНИЛАДИГАН ЎҚИТИШ УСУЛ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ, 2(1), 54-57.
6. Исмоилов Азамат Арсланбаевич. (2021). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ШКОЛЬНОМУ ПРЕДМЕТА «ФИЗИКА». Экономика и социум, 9(12), 9.
7. Азимкулов, С. Н. (2021). КЛАСТЕРНЫЙ ПОДХОД И ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В НАУЧНО- ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 826-861.
8. Azimqulov, S. N. (2020). ZAMONAVIY TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI. ТАЪЛИМДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИННОВАЦИОН УСУЛЛАРИ, 4(44), 124-126.
9. Boymurodov, A. X., Azimqulov, S. N., & Davlatova, A. R. (2021). ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMI AFZALLIKLARI VA IMKONIYATLARI. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1389-1395.